

ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ИНКЛЮЗИВ ТА'ЛИМNING O'RNI

Urunova Dilafrō'z Muzafarovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda davlatimizda muhim vazifalaridan biri bo'lgan rivojlanishida nuqsone bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta'limni joriy etish orqali ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning ta'limi to'g'risida fikrlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, idrok, tafakkur, tasavvur, diqqat-e'tibor, nutq. Inklyuziv ta'lim – ta'lim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta'lim berish

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda tug'ilayotgan bolalarning 10% dan ortig'ini rivojlanishida nuqsone bo'lgan bolalar tashkil etmoqda va so'nggi o'n yil ichida bu raqam ko'paymoqda. Psixofiziologik savol sifatida nuqsonga ega bo'lgan bolalarning xususiyatlari, ularning ta'lim va ta'lim qonuniyatlari, ayniqsa, bolalarning maxsus ta'limi uchun alohida ehtiyojlar va ularning rivojlanish xususiyatlari, buning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasi yo'llarining ishlarida shaxslar toifasi tekshiriladi. Xalqaro miqyosda amaliyotda yagona yondashuv mavjud emas. Respublikamizda ta'lim tizimida ta'lim shakllari sifatida inklyuziv ta'lim tashkil etildi.

Inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsone yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi hisoblanadi. "Inklyuziv" ta'lim atamasi fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Ammo inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda hali yetarli emas.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bu ta'lim shakli ahamiyatli hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish

imkoniyatini yaratadi. UNICEF tashkiloti inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning II bobi 20-moddasida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishi, inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi haqida so'z yuritilgan.

Nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'la'ni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati cheklangan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamallari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayoni hisoblanadi.

Har bir bolaning inklyuziv ta'lim huquqini ta'minlash maqsadida (barcha darajadagi) tegishli davlat hokimiyati organlari umumta'lim o'quv muassasalarida nogironligi bor va rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ham nazarda tutgan holda barcha o'quvchilarga zarur sharoitlarni yaratishi lozim.

O'quvchilar shaxsiy tizimini qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yuqori malakali pedagog kadrlarning, ularning psixologik-pedagogik hamrohlikni amalga oshiruvchi **zaxiradagi pedagog** va boshqa mutaxassislarining borligini qamrab olishi zarurdir. Bunda sharoit deganda bino va inshootlarning, o'quv materiallarining va texnik vositalarning jismoniy mos kelishi, o'quvchilar rivojlanishining individual rejasiga asosan o'quv dasturlarining moslashuvchanligi, shuningdek muassasaning tarbiyaviy tizimining barcha o'quvchilarni qabul qilishni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilganligi nazarda tutiladi.

Ko'pgina bolalar qatori jismoniy nogironlik yoki tayanch harakati a'zolari shikastlangan bolalar umumta'lim maktablarida bimalol tahsil olishlari mumkin — ularning jismoniy holatlari aqliy salohiyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Maktab binosi bu kabi holatlar uchun moslashtirilmagan bo'lsa ham, darslarni birinchi qavatda tashkillashtirib, kirar joyini pandus bilan jihozlash mumkin. Bu holatda **asosiy to'siq jismoniy yoki moddiy omillar emas, balki insoniy munosobatining ko'rinishi hisoblanadi**, ko'pincha maktab rahbarlari, o'qituvchilar va nogironligi bo'lmagan bolalarning ota-onalari ularning farzandlari maktabda nogironligi bo'lgan bolalar bilan birgalikda o'qishlarini istashmaydi. Ammo jismoniy nogironlik yoki tayanch harakati a'zolari shikastlangan bolalar ham barcha sog'lom bolalar qatori jamiyatda yashashga, ta'lim olishga haqlidirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ- 4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil
4. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-"Uzinkomsentr"-2002 yil.
5. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobimi nujdami v doskolnykh i shkolnix uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTSO Resursno'y sentr YUNESKO Tashkent 2002
6. "Dakarskiye ramki deystviy"- YUNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsekh»(osnovniye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opita) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuz. Tashkent, 2004